
Xurshid XUJAYEV

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIGA
INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING TAKOMILLASHTIRISH**

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Rahbari va Hukumati tomonidan investitsiya iqlimini yaxshilash, huquqiy asoslarni mustahkamlash hamda barqaror iqtisodiy o‘shirishga erishish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar qilib kelinmoqda. Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan. Xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o‘shirishni tezlashtirish, texnologiyalarni joriy qilish va yangi ish o‘rinlarini yaratishning muhim vositasi hisoblanadi. Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlarni yaratishni talab qiladi. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, investitsiyalarni jalb qilishda moliyaviy mexanizmlar, soliq va bojxona imtiyozlari, qonunchilikning barqarorligi, infratuzilmaning rivojlanganligi va korxonalarga moliyaviy qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston investitsion jozibadorligini oshirish maqsadida xorijiy investorlar uchun qulay iqtisodiy muhit yaratishga e‘tibor qaratmoqda. Maqolada mamlakatimizda investitsiyalarni jalb qilish uchun qo‘llanilayotgan moliyaviy mexanizmlar va ularning samaradorligi tahlil qilinadi, shuningdek, ushbu jarayonlarni yanada samarali qilish uchun takliflar berildi.

Tayanch so‘zlar: milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiya, investitsiyalar moliyaviy mexanizmlari, ichki investitsiyalar, akselerator modeli, kapitalga cheklangan moyillik, kapital samaradorligi, ichki investitsiyalardan samarali foydalanish.

**IMPROVING THE ATTRACTION OF INVESTMENTS INTO THE
ECONOMY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Abstract: The leadership and government of the Republic of Uzbekistan have been implementing reforms to improve the investment climate, strengthen the legal framework, and achieve sustainable economic growth. Financial mechanisms for attracting foreign investments to the economy have been studied. Foreign investments are considered an essential tool for accelerating economic growth, introducing new technologies, and creating new jobs. The successful implementation of economic reforms in our country requires creating favorable conditions for attracting foreign investments. International experience shows that

financial mechanisms, tax and customs incentives, legal stability, developed infrastructure, and financial support for enterprises are critical in attracting investments. Uzbekistan is focusing on creating a favorable economic environment for foreign investors to enhance its investment appeal. The article analyzes the financial mechanisms used to attract investments in our country and their effectiveness, as well as provides suggestions to make these processes even more efficient.

Key words: foreign investment in the national economy, financial mechanisms of investments, domestic investments, accelerator model, limited inclination to capital, capital efficiency, effective use of domestic investments.

Kirish

O'zbekiston va jahon iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog'liqligini bugungi kunda deyarli har bir mutaxassis va xo'jalik yurituvchi subyekt anglab etganligini nazarda tutsak, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan, xorijiy investitsiyalarini kengroq jalb etish, ularning mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali ijrosini ta'minlashning muhim asosiga aylangan.

Investitsiyalarning iqtisodiyot rivojlanishidagi ahamiyati barchaga ma'lum bo'lib bormoqda. Mamlakatimizni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning o'rni juda katta. Xorijiy investitsiyalar faqat moliyaviy manba sifatida emas, balki yangi texnologiyalar, boshqaruv uslublari va innovatsion yechimlarni olib keluvchi kuch sifatida ham muhimdir. Xususan, xorijiy sarmoyalar, mamlakatimizda zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarini joriy qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ahamiyatli rol o'ynaydi.

Ma'lumki, xar qanday davlat jahon tajribalarini o'rganmasdan, dunyoning etakchi davlatlari ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan rivojlanishi mumkin emas. Bunday sharoitda, O'zbekiston o'z iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va global iqtisodiyotga integratsiyalashish jarayonida xalqaro tajribalarni o'rganish va tatbiq etish zaruriyati keskin oshmoqda.

Investitsiyalarning samarali jalb qilinishi orqali mamlakatimiz iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish, xomashyo va tayyor mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, ichki bozorni diversifikatsiya qilish orqali iqtisodiyotimizni barqarorlashtirish zarur. Buning uchun hukumatimiz investitsiya muhiti, qonunchilik bazasi va infratuzilmasini doimiy ravishda takomillashtirib borishi zarur.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida hamkorlik aloqalarini o'rnatish va rivojlantirish, shuningdek, xorijiy investorlar bilan ochiq va ishonchli munosabatlarni yaratish, iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi

uchun muhimdir. O'zbekiston o'zining boy tabiiy resurslari, strategik joylashuvi va yoshlik potentsiali bilan xorijiy investorlar uchun jozibador davlatga aylanishi mumkin.

Ushbu jarayonlarning barchasi, o'z navbatida, mamlakatimizda investitsiyalarni jalb qilishning muvaffaqiyatini ta'minlaydi, bu esa uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlikni, ijtimoiy farovonlikni va xalqimizning turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro va milliy darajada investitsiyalarni jalb qilish va moliyalashtirishda etarli tajribalar mavjud. Investitsiyani moliyalashtirish asosan, mamlakatdagi iqtisodiy siyosat, qonunchilik, investitsiyani jalb qilish infratuzilmasini rivoji, darajasi va mamlakatning iqtisodiy ahvoriga bog'liq bo'ladi. Mamlakatimizda sifatli xom-ashyoning boy resurslari mavjudligi iqtisodiyotimiz uchun investitsiyalarni jalb qilish o'ta zarurligi va shu bilan birga, xom-ashyo resurslar bazasini tayyor mahsulot ishlab chiqarishga qarashimiz zarurligi yaqqol namoyon bo'lib turibdi.

Iqtisodiyotni globallashtirish sharoitida jahonda investitsiyalar uchun qat'iy raqobatli kurash izchil davom etmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, mamlakatimiz iqtisodiyotiga bevosita xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishini ta'minlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni takomillashtirish, xorijiy investitsiyalarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini o'tkazish, mablag'larni mamlakatning iqtisodiy mustaqqilligini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlarda hamda raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq yo'nalishlarda mujassam qilish respublikada o'tkazilayotgan investitsiya siyosatining asosiy tamoyillaridir.

Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning moliyaviy mexanizmlariga oid adabiyotlar sharxini keltiraman. Bu sohada nashr etilgan maqolalar va kitoblar investitsiya jalb qilish usullari, iqtisodiy siyosat, moliyaviy mexanizmlar va xalqaro tajribalarni o'rganishga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi

Dunning, John H. - "Multinational Enterprises and the Global Economy" (1993) xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda yirik korporatsiyalar (MNE) o'rni haqida fikrlariga ko'ra "eklektik paradigmasi" orqali xorijiy investitsiyalar qanday jalb qilinishi, korporativ strategiyalar va investitsiyalarning iqtisodiyotga ta'sirini o'rganadi. Bu yondashuv O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga muvaffaqiyatli integratsiya qilish bo'yicha ko'rsatmalar beradi. [1]

OECD - "Policy Framework for Investment" (2015), OECD tomonidan nashr etilgan ushbu hujjat investitsiyalarni jalb qilishning huquqiy, iqtisodiy va siyosiy jihatlarini ko'rib chiqilgan. Hususan xorijiy investitsiyalar uchun qulay muhit

yaratishda soliq, infratuzilma, siyosiy barqarorlik va inson kapitalining rivoji muhimligi ta'kidlangan. O'zbekistondagi islohotlar jarayonida xorijiy investorlarni jalb qilishda OECD tavsiyalari beradi. [2]

UNCTAD - "World Investment Report" (2023), Birlashgan Millatlar Tashkilotining savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi (UNCTAD) tomonidan har yili nashr etiladigan "World Investment Report" jahon miqyosidagi investitsiya oqimlari, investitsiyalarning geografik tarqalishi va sektorlar bo'yicha tahlilini o'z ichiga olgan. O'zbekistonning global investitsiya oqimlari kontekstida qanday joy tutishi va qanday moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish zarurligi haqida muhim ma'lumot berilgan. [3]

Jenkins, Rhys - "Transnational Corporations and Uneven Development" (1987), asarda transmilliy korporatsiyalarning rivojlanayotgan davlatlarga investitsiyalarni jalb qilishdagi roli va natijalarini tahlil qilingan. Xususan, xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiy o'sishga qanday ta'sir ko'rsatishi, texnologiyalarni olib kirish va ichki bozorlar rivojlanishiga qanday hissa qo'shishi masalalari o'rganiladi. Ushbu asar O'zbekiston uchun transmilliy kompaniyalar orqali texnologik rivojlanish imkoniyatlarini anglashda yordam beradi. [4]

World Bank - "Doing Business" (2020), Jahon bankining "Doing Business" hisoboti mamlakatlarning xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay biznes muhiti yaratishdagi ko'rsatkichlarini baholaydi. Bu hisobot O'zbekiston uchun soliq, bojxona va qonunchilik sohalarida qanday o'zgarishlar kerakligini tushunish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Xorijiy investorlarga qulay sharoit yaratishda ko'rilgan chora-tadbirlar tahlil qilindi. [5]

Akinci, G., & Crittle, J. - "Special Economic Zones: Performance, Lessons Learned, and Implications for Zone Development" (2008), tadqiqot maxsus iqtisodiy zonalarining rivojlanishi va ularning xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi roli haqida ma'lumot bergan. Maxsus iqtisodiy zonalar orqali xorijiy sarmoyadorlarga taqdim etiladigan imtiyozlar va ularning milliy iqtisodiy rivojlanishga qo'shadigan hissasi tahlil qilingan. O'zbekistonda ham maxsus iqtisodiy zonalarini rivojlantirish tajribasi uchun ushbu adabiyot muhim manba hisoblanadi. [6]

Saidov Q.N. O'zbekiston investitsion muhiti: xorijiy investitsiyalarni jalb qilish omillari va strategiyalari. — Toshkent: Iqtisodiyot va moliya, 2021., O'zbekistondagi investitsion muhit, xorijiy investorlar uchun imkoniyatlar va davlat tomonidan yaratilayotgan rag'batlantirish choralari haqida so'z yuritib bergan. [7]

Kazakhstan - "Investment Policy Review" (2017), Qozog'istonning investitsiya siyosati bo'yicha ko'rib chiqilgan ushbu hujjat investitsiya muhitini yaxshilash uchun qo'llaniladigan amaliy chora-tadbirlar haqida ma'lumot beradi. Xususan, mintaqadagi boshqa davlatlarning tajribasini o'rganish va taqqoslash orqali

O'zbekiston uchun moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirishda qimmatli tajribalarni olish imkonini beradi. [8]

Xamdamova R.R. - "Xalqaro moliya bozoridagi operatsiyalarning rivojlanish istiqbollari" (2022), maqolada xalqaro moliya bozorlaridagi operatsiyalar va xorijiy kapital oqimlari tahlil qilingan. O'zbekistonning xalqaro moliya bozorlaridagi ishtiroki va investitsiyalarni jalb qilishda moliyaviy mexanizmlar qanday rivojlanishi kerakligi bo'yicha tavsiyalar berilgan. [9]

Tahlil va natijalar

Xorijiy investitsiyalarni jalb etmay, ayniqsa, etakchi tarmoqlarda chet el investitsiyalari ishtirokini kengaytirmay turib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va modernizatsiyalash, korxonalarni zamonaviy texnika bilan qayta jihozlash hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin emas. Mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etilishi uning iqtisodiy imkoniyatlarining kengayishini tezlashtirib, barcha sohalarda ichki imkoniyatlar va rezervlarni ishga solish, yangi texnika va texnologiyani, eksportbop tovarlarni o'zlashtirishga, ularni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali davlatimiz iqtisodiy qudratini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

I. Investitsiyalar

2023 yilda jami 22,4 mlrd dollar xorijiy investitsiyalar jalb qilindi, shu jumladan 19,5 mlrd dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va kreditlar (193 %) o'zlashtirildi.

Davlat investisiya dasturi doirasida umumiy qiymati 9,4 mlrd dollar bo'lgan 306 ta loyiha ishga tushishi hisobiga 56 mingdan ortiq yangi ish o'rnini yaratilishiga erishildi.

II. Eksport

2023 yil yakuni bilan respublika eksporti 16,6 mlrd dollarni tashkil etib, o'sish sur'atlari asosan elektrotexnika (1 mlrd dollar, o'sish 26 %), avtomobil (682 mln dollar, 23 %), neftgaz (509 mln dollar, 10 %), farmasevtika (130 mln dollar, 95 %), transport (1,5 mlrd dollar, 5 %) va turizm (2,1 mlrd dollar, 33 %) hamda axborot texnologiya (441 mln dollar, 44 %) kabi tovar va xizmatlar eksporti hisobiga ta'minlandi.

Hududlardan Toshkent shahri (1,9 mlrd dollar, 9 %) hamda Xorazm (340 mln dollar, 44 %), Farg'ona (772 mln dollar, 13 %), Surxondaryo (234 mln dollar, 6 %), Sirdaryo (331 mln dollar, 3 %) viloyatlarida eksportda o'sish sur'atlariga erishildi.

144 ta yangi korxonalar eksport faoliyatiga jalb etilib, qo'shimcha 1 mlrd dollarlik mahsulotlar eksportga chiqarildi.

71 turdagi yangi mahsulotlar ilk marta eksportga chiqarildi va jami qiymati 109 mln dollarlik jumladan, ayollar plashi (526 ming doll), palto (411 ming doll),

elektron sigaret uchun tamaki (380 ming doll), gilamcha (363 ming doll) va sochiq (142 ming doll) mahsulotlaridir.

15 ta yangi bozorlar, jumladan, Daniya, Islandiya, Madagaskar, Venesuela, Urugvay, Zambiya, Gana, Keniya, Kot-d'Ivuar kabi davlatlar o'zlashtirilib, ushbu davlatlarga jami 26 mln dollarlik mahsulotlar eksport qilindi.

Toshkent viloyati misoloda xorijiy investitsiya va kreditlarning ulushi.

2023-yil yanvar-iyun oylarida Toshkent viloyatida 4321,0 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmining 30,0% i xorijiy investitsiya va kreditlari hisobidan amalga oshirilgan. Shundan xorijiy investitsiyalarning hajmi 2134,2 mird. so'mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi 52,1% ni tashkil qildi. Xorijiy kreditlarning hajmi 2186,8 mlrd. so'mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi 47,9% ni tashkil qildi. 2023-yil yanvar-iyun oylarida jami 54,0 trn. so'm asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 91,8% ni tashkil etdi. Uning tarkibida, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan investitsiyalar 2022-yilning mos davriga nisbatan 105,2% ni, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 44,7% ni tashkil etdi.

Mamlakatimiz hududlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash respublikamizda yuritilayotgan iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lmoqda. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishi, turmush sharoitlarining yaxshilanishi ham bevosita ularning iqtisodiyoti rivojlanishi bilan bog'liq. Mamlakat iqtisodiyoti hududlardan tarkib topgan bir butun tizimni tashkil etgani sababli, uning har bir mintaqasidagi rivojlanishni ta'minlash mamlakatimizning uzluksiz taraqqiyotiga zamin yaratadi. Shunday ekan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda mamlakat va uning mintaqalarida yaratilgan investitsion jozibadorlik va nisbiy afzalliklar muhim o'rin tutadi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni va yuqori texnologiyalari, boshqaruv ko'nikmalarini jalb qilish milliy firmalarning ishlab chiqarish usullariga muayyan o'zgarishlarni olib kiradi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash, xududlardagi reurs salohiyatini faollashtirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmini oshirish, texnologiyalami zamon talablari asosida yangilash, iqtisodiyot tarmoqlarini tarkibiy diversifikatsiyalash, eksportni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholi turmush farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardan boshlab milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning o'ziga xos yo'nalishini belgilab oldi. U iqtisodiyotning rivojlanishi va barqarorligida investitsiyalarning beqiyos o'rin tutishini o'z vaqtida to'g'ri anglab etganligining natijasida investitsiyalarga, xususan, chet el investitsiyalariga bo'lgan e'tiborning kuchayishi yuz berdiki, bu esa

bugungi kunga kelib mamlakatimizdagi investitsiya faoliyatining rivojlantirilishiga olib keldi.

Chet el investitsiyalari mohiyat jihatidan o'z milliy investitsiya muhitini o'zga muhitga almashtiradi. Xavfsizlik, daromaddorlik, kapitallashuv va likvidlikdan tashqari chet el investitsiyalarining o'ziga xos muhim belgisi aniq maqsadlarni ko'zlashi hisoblanadi. Chet el investitsiyalari bir iqtisodiyot subyektlari kapitallarini boshqasiga bog'lab qo'yish bo'lib, bunga o'ziga xos qo'shimcha risklari, huquqiy sharoitlarning, investitsiya muhitining o'zgarishi xos bo'lib, natijada mamlakatlar va mintaqalar bo'ylab kapital ko'chishi yuz beradi. Bularning barchasi kapitalni eksport qiluvchi mamlakatdagi investitsiya muhitiga qaraganda yanada qulayroq muhitni yaratishni obyektiv zaruratga aylantiradi. Chet el investitsiyalari oqimi ko'pgina aktivlar olib kelish bilan birga kapitalni import qiladigan mamlakatda soliq, ijara va boshqa tushumlarini ko'payishini ta'minlab beradi.

Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish mamlakatimizga xorijiy investitsiyalar ko'magida korxonalarga zamonaviy texnik-texnologiyalar joriy qilib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanadi, import o'mini bosuvchi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va pirovardida aholining turmush darajasini oshirish imkoni yaratiladi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlashga ko'maklashadi, korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlari, moddiy-texnik bazasi yangilanadi va texnik qayta qurollanadi, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalar barpo etiladi.

Birinchidan, iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kelgusida takomillashtirish yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishishga, yangi turdagi raqobatbardosh mahsulotlarning ishlab chiqarilishiga va eng muhimi mamlakatimiz mintaqalarida yangi ish o'rinlarining yaratilishiga, shu orqali aholi turmush tarzining yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi. Xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish asosida ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantiradi. Hukumat kafolati asosidagi xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi chet ellik investorlarda mamlakatimiz iqtisodiyotiga qiziqish uyg'otadi.

Ikkinchidan, import o'mini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotni ustuvor sohalariga yo'naltirish, pirovardida, aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlashga imkon yaratadi.

Uchinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi.

Toʻrtinchidan, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnika bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga koʻmaklashadi.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni milliy korxonalarga jalb etishda quyidagi ustuvor yoʻnalishlarni belgilash maqsadga muvofiqdir.

- qishloq xoʻjalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash sohalarini rivojlantirish;
- mineral xom ashyo resurslarini, shu jumladan, neft va gazni qazib chiqarish, qayta ishlash boʻyicha ekologik ishlab chiqarishni tashkil etish;
- transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ilm talab va jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish;
- turizm sohasini rivojlantirish, xalqaro va ichki turizmning zamonaviy infratuzilmasini yaratishga erishish.

Erishilgan yutuqlar bilan birga bu borada toʻsiq va kamchiliklar mavjud. Mamlakatni investitsiya iqlimi holatini belgilaydigan asosiy koʻrsatkich boʻlgan, bevosita xorijiy investitsiyalar oqimining etarli darajada koʻpaymaganligini koʻrsatish mumkin. Shu nuqtai nazardan ham xorijiy investitsiyali korxonalar faoliyatini jonlantirish va bevosita xorijiy investitsiyalar oqimini maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirilishi kerak:

1. Mamlakat investitsiya iqlimini yaxshilash va echimini topish maqsadida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mutaxassisleri, hududiy hokimliklarining mutaxassis vakillari, investitsiya imkoniyatiga ega boʻlgan yirik kompaniya va korxonalar rahbarlari hamda respublikaning investitsiyalar sohasidagi etuk olimlari ishtirokida, keng jamoatchilik oʻrtasida ochiq muloqot tashkil qilinib, mavjud muammolar oshkoralik bilan har tomonlama muhokama etilishi lozim. Shu asosda masalaga keng jamoatchilik fikrini jalb qilgan holda, mutaxassislar, olimlar va amaliyotchilar oʻrtasida ilmiy va iqtisodiy asoslangan yagona investitsiya siyosatini, shuningdek, qabul qilingan qonun va qarorlarni amalda ishlash mexanizmini ishlab chiqish va hayotiylikini taʼminlash lozim.

2. Investitsiyalar oqimiga (nafaqat xorijiy, balki koʻp tomonlama ichki investitsiyalar taalluqli) taʼsir qiluvchi omillardan biri sifatida marketing tadqiqotini zaif olib borilayotgani, natijada koʻplab ishlab chiqarilgan mahsulotlar omborlarda qoldiq boʻlib qolayotganligi koʻrsatilmoqda. Bu muammoni faqat investitsiyalarning oʻziga bogʻliq qaratilib, echim izlamasdan, aholi va korxonalarning isteʼmol qobiliyatini koʻtarish, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarga iisbatan sogʻlom talab darajasini oshirish nuqtai nazaridan qaralishi maqsadga muvofiq boʻladi.

3. Korxonalarning moliyaviy ko'rsatkichlari hamda iqtisodiy indikatorlar haqida holis va ishonchli axborot ta'minoti hamon yaxshi yo'lga qo'yilgani yo'q. Bu masalani hal qilish uchun muqobil va mustaqil nodavlat axborot agentlarini tashkil qilinishi lozim. O'zbekiston investitsion muhitni takomillashtirish xorijiy kapitalni jalb qilish qulay makroiqtisodiy siyosatni shakllantirish bo'yicha ish olib borish muhim hisoblanadi. Buning uchun inflyatsiya darajasini past darajada ushlab turish, inflyatsiyaning investitsion loyihalarni qiymatini o'sishiga ta'sirini kamaytirish, xorijiy investitsiyalar tarkibida bevosita xorijiy investitsiyalar miqdorini keskin ko'paytirishga ko'proq e'tibor qaratish kerak. Investitsiyalarni real ishlab chiqarish sohasiga, birinchi navbatda xom-ashyoni qayta ishlovchi tarmoqlarga jalb etish lozim.

Xulosa

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va rivojlantirishda tashqi iqtisodiy omillardan samarali foydalanishga erishish uchun quyidagilarni aytib o'tish joizdir:

1. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ichki muhitni yaxshilash, soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirish, xorijiy investitsiyalarni ro'yxatga olish tizimini soddalashtirish.

2. Xorijiy sarmoyadomi qiziqtiruvchi sohalar, obyektlarni aniqlash va ular to'g'risidagi ma'lumotlar majmuini shakllantirish, biznes rejalar va ularni iqtisodiy rivojlantirish loyihalarini ishlab chiqish va iqtisodiy jihatdan manfaatli bo'lgan sohalarga chet el kapitalini jalb qilish.

3. Eksportda qayta ishlangan, tayyor mahsulotlar salmog'ini ko'paytirish, ayniqsa, avtomobil sanoati, elektrotexnika, zamonaviy qurilish materiallari, paxtani chuqur qayta ishlash va qishloq xo'jaligi mahsulotlarni chuqur qayta ishlashni va bu sohaga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish.

4. Import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rivojlantirish uchun yirik ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari bilan samarali aloqasini ta'minlash zarur, ya'ni yirik korxonalarga yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlarni etkazib beruvchilari bo'lishlari zarur.

5. Eksportga ishlaydigan kichik korxonalarni ko'paytirish va ularni samarali faoliyat yuritishlari uchun etarli shart-sharoitlar yaratish va davlat tomonidan imtiyozli kredit liniyalari hajmini oshirish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Balabanov I.T. "Инвестиции: Организация управления и финансирование". — Москва: Финансы и статистика, 2000.

2. Karlik A.Ye., Морозова Т.В. "Международные инвестиции и инновации: формы, условия, инструменты". — Санкт-Петербург: СПбГУЭФ, 2009.
3. Sharp U., Александер Г., Бэйли Д. "Инвестиции". — Москва: Инфра-М, 2006.
4. Jukov Ye.F. "Международные валютно-кредитные и финансовые отношения". — Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2005.
5. Yusupov M.A. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda davlatning roli va uning boshqaruv mexanizmlari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
6. Qudratov B.A. O'zbekiston iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalar va ularning samaradorligini oshirish yo'llari. — Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2019.
7. To'xtayev A.X. Interstitial faoliyatining moliyaviy mexanizmlari. — Toshkent: Moliya, 2017.
8. Rasulov U.R. Xalqaro moliyaviy munosabatlar va investitsiyalar. — Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020.
9. Saidov Q.N. O'zbekiston investitsion muhiti: xorijiy investitsiyalarni jalb qilish omillari va strategiyalari. — Toshkent: Iqtisodiyot va moliya, 2021.
10. Amirqulov, B. R (2022), Davlat maqsadli fondlarn moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish yo'nalishlari. Science and Education, 3(1), 1048-1053
11. Jahon banki va Xalqaro valyuta fondining O'zbekistonda investitsiyalar holati bo'yicha hisobotlari.
12. OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) nashrlari va o'tkazilgan tadqiqotlar.